FARG‘ONA VILOYATI YOZYOVON TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 13-fevral | 53-11-165-Q/25 | Yozyovon tuman hokimligi

Yuqori Soybo`yi MFY “Yangi O`zbekiston”massivi hududiga “3.27–To`xtash taqiqlangan” yo‘l belgisini o‘rnatishga ruxsat berish to‘g‘risida

Yozyovon tuman IIB YHXB tomonidan berilgan murojaatni o‘rganib, Yuqori Soybo‘yi MFY “Yangi O‘zbekiston” massividan Xalqaro axamiyatga ega A373 “Toshkent-O‘sh-Qo‘qon” avtomobil yo‘liga chiqish hamda kirish qismida avtomobillar tartibsizligi vujudga kelib, fuqarolar xavfsizligiga jiddiy sabab bo‘layotganini inobatga olib, ushbu yo‘lda transport vositalari xarakat xavfsizligini hamda aholi havfsizligini ta’minlash, “Avtomobil yo‘llari to‘g‘risida”gi qonunning 7, 20- moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi qonunining 4, 7-moddalariga hamda Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qaroriga asoslanib, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 21^{1}-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN

1. Yozyovon tumani IIB YHXB tomonidan 2024-yil 4-iyul kuni berilgan aloqa xati inobatga olinsin.

2. Yozyovon tumani yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (O‘.Xaydarov) tuman IIB YHXB boshlig‘i (Y.Ibragimov)lar “Yuqori Soybo`yi” MFY “Yangi O‘zbekiston” massividan Xalqaro axamiyatga ega A373 “Toshkent-O‘sh-Qo‘qon” avtomobil yo‘liga chiqish hamda kirish qismiga belgilangan tartibda, transport vositalari xarakat xavfsizligi hamda aholi havfsizligini ta’minlash maqsadida “3.27–To‘xtash taqiqlangan” yo′l belgilarini o‘rnatsin.

3. Tuman Ichki ishlar bo‘limi (U.Ikromov)ga ushbu hududda harakatlanuvchi transport vositalarining mazkur yo‘l belgilariga qat’iy rioya qilinishi hamda harakat xavfsizligini ta’minlash vazifalari yuklatilsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati (A.Xudoyqulov) hokimlik rasmiy veb sayti va “Markaziy Farg‘ona” gazetasida ushbu qarorni nashr etilishi va joylashtirilishini ta’minlansin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari D.Bekmirzaev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **D.T.Djalilov**